

Materiklar bo'ylab sayohat



Materiklar Yer sayyorasining ulkan quruqlik qismlaridir. Yer sayyorasida oltita yirik materik bor va ularning har biri o'ziga xosdir. Materiklar **kontinentlar** deb ham ataladi. Har bir materik o'ziga xos geografik xususiyatlar, iqlim, tabiat, o'simlik va hayvonot dunyosiga ega.

Afrika juda katta materik bo'lib, u o'zining xilma-xil tabiati va hayvonot dunyosi bilan mashhur. Bu materikda jirafalar va fillar yashaydigan savannalarni, shuningdek, Saxara kabi yirik cho'llarni uchratish mumkin.

Yevrosiyo – Yer yuzidagi eng katta materik. U dunyoning Yevropa va Osiyo qismlarini o'z ichiga oladi. Yevropa Osiyoning g'arbiy qismida joylashgan. Yevropada Fransiya, Germaniya, Italiya kabi boy tarixga ega ko'plab davlatlar mavjud. Yevropaning eng katta daryosi – Dunay materikni shimoldan janubga kesib o'tadi. Osiyoda Xitoy, Hindiston va Yaponiya kabi davlatlar joylashgan. Eng baland tog' tizimi Himoloy ham Osiyoning markazida joylashgan. U eng baland Everest cho'qqisi bilan dunyoga mashhur.

Shimoliy Amerika materigi AQSH va Kanada kabi yirik davlatlarni o'z ichiga olgan bo'lib, u yerdan Meksika va boshqa ko'plab davlatlarni ham topish mumkin. Bu materik o'zining xilma-xil landshaftlari, jumladan, Katta Kanyoni bilan mashhur.

Janubiy Amerika – Shimoliy Amerikaning janubidagi materik. U Amazon yomg'irli o'rmonlari va And tog'larida o'suvchi o'simliklari bilan mashhur. U yerda Braziliya, Argentina va Chili va yana ko'plab boshqa davlatlarni topish mumkin.

Avstraliya – bu bir vaqtning o'zida ham materik, ham davlatdir. Avstraliya Osiyoning janubida joylashgan bo'lib, u o'zining noyob flora va faunasi, jumladan, kenguru va koalalari bilan mashhur.

Antarktida – bu Yerning janubiy qutbida joylashgan materik. U butunlay muz bilan qoplangan bo'lib, materikda qattiq sovuq hukmronlik qiladi.



Materiklarning yuzasi juda xilma-xil. Ular tekisliklar, adirlar, tog'lar, daryolar va ko'llardan iborat. Har bir materik o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosiga ega.



Ta'riflarni o'qing va gap nima haqida borayotganini taxmin qiling. Tepaliklar, tekisliklar yoki tog'lar haqidami?

Bu yerning notekis bo'lgan qismlari bo'lib, ular qolgan qismlardan ancha balandroq ko'tariladi. Odatda, bunday joylar cho'qqilari qor bilan qoplangan va go'zal manzaraga ega bo'ladi. Ular tog'-chang'i kurortlari, alpinizm va boshqa ochiq havoda faol dam olish joylari bo'lishi mumkin.

Bu uzoq masofalarga cho'zilgan yassi va tekis yer uchastkalaridir. Ular zich o'tlar, o'rmonlar yoki butalar bilan qoplangan bo'lishi mumkin. Bunday joylar qishloq xo'jaligi uchun qulay joylar bo'lib, u yerlarda sabzavot va don mahsulotlari yetishtiriladi.

Bu unchalik baland bo'lmagan tepaliklarga o'xshab ko'rinadigan yerlar. Ular, odatda, haqiqiy tog'larga nisbatan kattaligi va balandligi jihatidan ancha kichik. Bu yerlar daraxtlar, o'tlar yoki butalar bilan qoplangan bo'ladi. Ba'zi joylari uzum yetishtirish uchun qulay bo'ladi.



Quyidagi fotosuratlardan qaysi birida tog', qaysi birida tepalik va qaysi birida tekislik aks etadi?

1



2



3



Xaritaga qarang, qaysi materik qayerda joylashganligini eslang.

1. Qaysi materikda eng baland tog'lar bor?
2. Qaysi materikda tog'lar ko'p, tekisliklar kam?
3. Qaysi materikda tekisliklar ko'p va tog'lar kam?

